




TURIZMNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Absaitov Ilhom Qaxramon o'g'li

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar yo'nalishi

Telefon nomer: +998905546379

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18780009>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 31-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 22-fevral 2026 yil

Nashr qilindi: 25-fevral 2026 yil

KEY WORDS

turizm, raqamli iqtisodiyot, tarixiy obidalar, qadimiy shaharlar jamiyat, davlat, jahon standartlari

ABSTRACT

Hozirgi kunda turizm sohasi ko'plab mamlakatlarda rivojlanib, o'sib borayotgan iqtisodiyotning bo'g'inini tashkil qilmoqda. Shu jumladan, O'zbekiston ham turizm sohasiga katta e'tibor qaratib, bu sohaga yangi investitsiyalar kiritmoqda. Bu maqolada O'zbekistondagi turizm sohasining kamchiliklari, yutuqlari va jahon standartlariga moslashishi haqida so'z boradi.

Asosiy qism

Rivojlanayotgan dunyoda mamalakatlarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanishida barcha sohalar qatori turizmning ham o'rni juda katta hisoblanadi. Turizm sohasida qat'iy, amaliy tartib o'rnatgan, rivojlanishi uchun sharoit yaratgan har qanday davlat o'z moliyaviy hisobiga yetarlicha mablag' olmoqda. Turizm xizmati hozirda iqtisodiyotning yetakchi sohalaridan biri bo'lib faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston ham o'zining ko'z-ko'z qilishga arzigulik tarovati-ga, maftunkor tabiatiga, tarixini buyuk qilgan dono ajdodlariga, asrlar silsilasiga bardosh berib kelayotgan beqiyos minoralari-yu muqaddas qadamjolariga, o'chmas qadriyat va urf-odatlariga, hayratlanarli yodgorliklariga ega bo'lgan osoyishta diyorlardan biridir. Hozirda yurtimizda yetti mingdan ortiq tarixiy obida va ziyoratgohlar mavjud bo'lib, xorijiy mamlakatlar va sayohatchilarni o'ziga jalb qilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlab o'tishimiz kerakki, yurtimizda chet ellik sayohatchilar uchun keng imkoniyatlar, qulay sharoitlar yaratib berilgan. Vatanimizning har bir maskani o'ziga xos jozibadorlikka ega, ammo ularning orasida dunyo tan olgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Qarshilarni alohida ajratib, ta'kidlab o'tmaslikni iloji yo'q. Asrlar mobaynida O'zbekiston Buyuk Ipak yo'lining serqatnov qismida joylashgan bo'lib, o'sha davrlardayoq o'lkamiz savdogar va sayohatchilar uchun qulay mintaqaga aylanib ulgurgan edi. Har zamonda ham O'zbekiston o'zining tarixiy, me'moriy yodgorliklari, milliy urf-odatlari, xalqona qadriyat va an'analari, buyuk alloma-yu sarkardalari bilan jahonni hayratga solib kelgan. Ma'lumki, bizning mintaqamiz, avvalambor, bugungi Turon zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, islom dini va hadis ilmini mukammal bilgan avliyo va mutafakkirlarimizning bebaho merosi haligacha o'rganilib, dunyo miqyosida qo'llanib kelinmoqda. Buyuk ajdodlarimizni va ulardan qolgan yodgorliklarni o'rganish maqsadida jahonning eng sara mamlakatlaridan malakali professor-olimlar va arxeologlar davlatimizga tashrif buyurib, izlanishlar olib bormoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, yurtimizga keluvchi olimlar va qiziquvchi sayyohlar ko'lami kundan kunga ortib bormoqda, desak

adashmagan bo'lamiz. Turizm sohasini rivojlantirish uchun buguni raqamli iqtisodiyot sharoitida yetarlicha imkoniyat va o'ziga xos kamchiliklarimiz mavjud. Hozirda jahon mamlakatlari iqtisodiyotiga yangi kirib kelgan "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi bizning yurtimizda ham joriy etilib, deyarli ko'pchilikka tushunarli bo'lib bormoqda. Ya'ni mening tushunishim bo'yicha, jamiyatda mavjud barcha sohalarni qulaylashtirish, aholiga xizmat ko'rsatish va turmush sharoitini yengillashtirish maqsadida, mavjud yetakchi ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarga sodda raqamlar orqali murojaat etish va ko'rsatkichlarda ifodalanadigan iqtisodiy tushunchalarni foizlarda emas, balki aniq raqamlar orqali xalqqa yetkazishdan iborat bo'ladi. Bu orqali shaffoflikni ta'minlash, ba'zi bir muammolarni oldini olish nazarda tutulgan. Shu bilan birgalikda turizm sohasida bu tushunchani qo'llaydigan bo'lsak, masalan, yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni ko'rsatkichini yanada yuqoriroq darajaga ko'tarish, sayyohlarga raqamli xizmatlar orqali imkoniyat yaratish va boshqalarni aytish mumkin. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyot uchun eng zarur manba internet hisoblanadi. Masalan, o'zimizga kerakli ma'lumotlarni olmoqchi yoki biror narsa buyurtma qilmoqchi, davlat xizmati xodimlariga turli masala bo'yicha murojaat etmoqchi bo'lsak ifodalangan va joriy etilgan qisqa raqamlar orqali o'z ehtiyojimiz uchun foydalanishimiz va vaqtimizni tejashimiz mumkin. Shu bilan birgalikda turizm sohasida ham mavjud kamchiliklarni bartaraf etishimiz lozim. Eng avvalo, sayohatchilar uchun imkoniyatlar va sharoitlarni yoshga mos ravishda yaratish, ularning tilimizni oson, tez o'rganishlari uchun ixcham qo'llanma tuzish, Vatanimiz tarixi va buguni aks etgan tasvirli albomlar, qisqa metrajli video filmlarni ko'proq targ'ib qilish, yurtimizdagi har bir kishi Vatanimiz tarixini, ajdodlarimiz hayoti va faoliyatini faqatgina o'z tilimizdagina bilib qolmay, chet tillarida ham ravon gapira olishlarini ta'minlash hamda talab qilish, ularning sayyohlarga nisbatan muomala madaniyatlarini yanada yaxshilash kabi muammoli jihatlarni bartaraf etish lozim. Shu jumladan, yurtimizga tashrif buyuruvchilar uchun jahon standartlariga javob bera oladigan mehmonxonalar sonini ko'paytirish, ularga xizmat ko'rsatish sohasini talab darajasida yaxshilash lozimligini ham aytib o'tish darkor. Yurtimizga xorijdan kelayotgan sayyohlar nimalarga ko'proq qiziqishiga bir e'tibor bering. Ular milliy ruh ufurib turgan inshootlarni va ularga savlat, ko'rk bag'ishlab turgan naqshlar, yozuvlarni hamda bugungi kungacha o'z betakrorligini, jozibadorligini asil holicha saqlab kelayotganligini ko'rib hayratlanib tomosha qilishadi. Chunki osmono'par zamonaviy binolar dunyoning har yerida istagancha topiladi, biroq o'zbeklar devori bir-biriga tutashib ketgan, moviy gumbazli, naqshdor peshtoqli maqbara va madrasalari bilan faxrlanishadi. Hammaga ma'lumki, turizm sohasi davlat budjeti uchun moliyaviy daromad manbayi bo'lib qolmay, davlatni dunyoga tanitadigan muhim omil ham hisoblanadi. Ko'plab maqbara-yu madrasalarni o'zida bino etgan, yetti avliyoni birlashtirgan, islom madaniyatining markazi deya dunyo e'tirof etayotgan qadimiy, navqiron shahar bo'lgan Buxoro bugunda ham dunyoni hayratga solib kelmoqda. Bu diyori yurtimizdagi eng go'zal va tarixiy yodgorliklarga boy, turizmni rivojlanishiga katta hissa qo'shuvchi sharif shahar hisoblanadi. Tarixiy shaharlarda sayyohlik tizimini yanada kuchaytirish uchun shunday tizim joriy qilish kerakki, tashrif buyuruvchilarda har tomonlama, ham shart-sharoit ham madaniyat, ham toza atrof-muhit faqatgina ijobiy taassurot qoldirsin. Bu borada ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda, ammo haligacha jahon miqyosidagi turizm sohasi reytinglarida quyi pog'onalarda turganimiz achinarli holat hisoblanadi. Hukumatimiz va yurtboshimiz tomonidan bu sohani yanada rivojlantirish to'g'risidagi qonun va farmonlar hozirda jadal kuchga kirib natija berishni boshlamoqda. Ayniqsa, turizm tarmog'ida malakali kadrlar tayyorlashga va salohiyatini oshirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi sayyohlik tizimini yangi bosqichga olib chiqishda qo'llanma

vazifasini o'tadi¹. Yurtimizga tashrif buyuruvchi mehmonlarning ko'pchiligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, aksariyati keksa kishilardir. Ularning yoshiga monand yetarlicha kerak bo'lsa undan ham ortiq darajada shart-sharoitlarni jahon andozalari asosida yaratishimiz va ularni O'zbekiston tuprog'iga qadam qo'yishlari bilan olgan birinchi taassurotlaridayoq ijobiy fikr uyg'otishimiz eng muhimi hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, xorijlik yoshlarni ham bizning yurtimizga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishimiz kerak. Bundan tashqari, sayyohlarning dini, turmush tarzi, an'analari hisobga olib ularga sharoit yaratishimiz, ularning talab va takliflarini inobatga olishimiz, ular sayohatlarini yaxshi o'tkazishlarini ta'minlashimiz, shu bilan birga bu sohada xizmat qilayotgan xodimlarning savodxonlik darajasini ham chet tillarini bilish, ham shaharlarimiz, obidalarimiz haqida tarixiy ma'lumotlarga egaligini tekshirishimiz lozim deb o'ylayman. Yana aytishimiz mumkinki, faqatgina tarixiy obidalar, ziyoratgohlar mavjud joynigina emas, balki uning atrofini, u yerga olib boradigan yo'llarning toza va ravon saqlanishini qattiq nazoratga olish zarur. Bugungi axborot-texnologiyalari rivojlangan davrda mamlakatimizning tarixi va buguni, urf-odatlar, milliy qadriyatlar, xalqona taomlari, an'analari aks etgan hujjatli filmlarning sonini oshirishimiz va turli tillarda namoyish qilishimiz o'rinlidir, deb hisoblayman. Agar barcha rejalarni amalga oshirsak, o'ylaymanki, ijobiy natija va yutuqlarga erisha olamiz.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, biz barchamiz bir kuch bo'lib harakat qilishimiz, jamiyatimizda mavjud jamiki sohalarning yuksalishi, davlatimizni jahonga tanilishi, gullab-yashnashi uchun o'z hissamizni qo'shishimiz kerakligini chuqur his qilib, maqsadlarimizni amalga oshirishimiz darkor va bu bizning fuqarolik va insoniy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[PF-5611-сoн 05.01.2019. O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida](#)

INNOVATIVE
ACADEMY

¹ [PF-5611-сoн 05.01.2019. O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida](#)